https://doi.org/10.5281/zenodo.10429880

THE MEMORY OF THOSE WHO MADE MARTYRS FOR THE WAY OF THE MOTHERLAND'S FREEDOM IS ALWAYS ALIVE

VATAN OZODLIGI YO`LIDA SHAXID KETGANLAR XOTIRASI MANGU BARXAYOTDIR

Karomova Maxfuza Suvonovna
Buxoro viloyati Vobkent tumani tarix huquq fani o'qituvchisi
(Uzbekistan)

Anotatsiya. *Mustaqil O'zbekistonning kelajagi ko'p jihatdan barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalashga bog'liq. Ana shunday dolzarb vazifani amalga oshirish uchun o'zbek xalqining ta'lim tarbiyaga oid boy tarixiy tajribasini o'rganish va uni yangi zamon kishisini shakllantirish hamda tarbiyalashda hayotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbuslari bilan qadriyatlarimiz va ma'naviyatimizni qayta tiklash uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Jumladan, bugungi kunda yosh avlodni har jihatdan barkamol inson sifatida shakllantirish ta'lim-tarbiya tizimida dolzarb muammolardan etib belgilandi. Shuningdek inson ma'naviyatini shakllantirishda estetik tarbiyaning o'rni kata ma'no va mazmun kasb etadi.*

Kalit so'zlar*: Hamjihatlik, bag'rikenglik, Qatag'on qurbonlari, jadidchilik, Istiqlol, Mustaqillik.*

Mustaqillik yo`llarida mamlakatimizda tinchlik-osoyishtalik,xamjihatlik va bag`rikenglik mustahkam qaror topdi.Kattalarga xurmat, kichiklarga izzat, mexr-oqibat tuyg`ulari odamlar qalbi va shu o`rindan chuqur joy oldi. Ajdodlar xotirasini yod etib, yokinishlarini davom ettirish, bugun saflarimizda yurgan, el-yurt tinchligi va ravnaqi yo`lida xizmat qilgan keksalarni ezozlash manaviy hayotimizning ajralmas qismiga aylandi.

Mustaqillik kunlarida millatimiz oydiylari xotirasini e`zozlash, xizmatlarini eslash yaxshi an`ana bo`lib kelayotgani, ularning ruxlariga duolar qilinishi eng ezgu amallarimizdandir.Shumaqsadda, joriy yo`lning 31-avgust kunisi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Shaxidlar xotirasi xiyobonida qatag`on kurbonlarini yod etish marosimi ishtirok etdi.

Maskur marosimda Quron tilovat etilib,o`tganlar haqida duo qilinib, elga osh tortildi. Chunki ular xalqimiz ozodligi uchun, bugungidek emin-erkin kunlar uchun intilgan edi. Bu sana Vatanga fidoyilik unutilmasligini, hamisha qadrlanishini anglatadi.

2001-yildan buyon 31-avgust ''Qatag`on qurbonlarini yod etish kuni''sifatida nishonlab kelinmoqda. Jadid bobolarimizning ruxlarini shod etish, hayoti va merosini o`rganishga qaratilgan ishlar davom ettirilmoqda. So`ngi yo`llarda "Qatag`on qurbonlari xotirasi''muzeyi rekonstruksiya qilindi.

Mustabid tuzum davrida million-million begunih insonlarning umri xazon bo`lganini, qancha-qancha oilalar xonavayron bo`lib, qancha-qancha go`daklar etdim qolganini tarix, bugungi va kelajak avlod hech qachon unutmaydi. Birgina 1937-38 yillardagi katta qirg`in davrida 7 mingga yaqin vatandoshimiz otilgan.

Xozirgi xiyobon shunday qatllar ijro etiladigan mudhish joy bo`lgan. Mustaqillik yillarida u obod maskanga aylantirildi. Bu yerda "Qatag`on qurbonlari xotirasi'' muziye, Qoraqalpog`iston Respublikasi va kelajak avlod hech qachon unutmaydi.Ayni paytda muzeyda Turkiston ma`rifatparvarlariga bag`ishlangan ko`rgazma ochilgan.

Mazkur yodgorlik majmui, ''Qatag`on qurbonlari xotirasi'' muzeyi bu yerga tashrif buyuruvchilarda, ayniqsa, yoshlarda katta taassurot qoldiradi.Milliy me`moriy an`analar asosida barpo etilgan muzeyga kirishingiz bilanoq Chor vas sho`ro mustamlakachiligini davrining fojiali manzaralari ko`z oldingizda gavdalana boshlaydi. Uchta zal va yun bo`limdan iborat muzeyning birinchi zalida O`rta Osiyoning Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi va bunga qarshi ko`tarilgan xalq qo`zg`olonlaridan tortib o`tgan asrning 30 yillari boshlarida ro`y bergan siysiy qatag`onlargacha bo`lgan voqealar bilan tanishish mumkin.

Jamiyatni ma`naviy yuksaltirishda, milliy g`oyani mustahkamlashda, yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat tarbiyalashda muzeylarning alohida o`rni bor. Muzeylarni bejiz tarix, ma`naviyat va san`at xazinasi deb tariflashmaydi. Ularda turli-tuman noyob va qimmatbaho ashyular jamlanganki, xalqning o`tmishi aks etgan bu ekspozichiyalar bizni ajdodlar hayoti,kurashi va boy merosi bilan tanishtiradi. Muzeylarning ijtimoiysiyosiy hayotimizda bajaradigan vazifalaridan biri ta`lim va tarbiya o`chog`I ekanligidir.

Maskur muzeyning aynan Toshkent shaxridagi Bezsuv sohilida barpo etilgani bejiz emas. Zotan, ayni shu qarovsiz joyda zulm va zeravonlikka asoslangan shafqatsiz sherolar tuzumi davrida Abdulla Qodiriy , Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho`lpon singari xalqimizning ne-ne asl farzandlari otilgan , bekafan, bejanoza ko`mid yuborilgan.

Mustaqillik tufayli ajdodlarimiz oldidagi insoniy burchimizni ado etishga imkon tug`ildi. Shu bois bu manzil qatag`on qurbonlarini xotirlaydigan muqaddas qadamjoga, ozod Vatanda tug`ilib , kamolga etyotgan yoshlarning ziyoratgohiga aylandi.

1937-53 yillarda O`zbekistonda 100ming odam qatag`onga uchragani, ularning 13 ming nafari otib tashlangani yana bir bor yodga olindi. Afsuski,tazyiqlar bu bilan cheklanib qolmagan.

El-yurtimiz ozodligi va erkinligi yo`lida, xalqimizning qadr-qimmati, or-nomusini, milliy an`analarimiz va urf-odatlarimizni himoya qilishda, bosqinchi va yovuz kuchlarga qarshi mashaqqatli kurashlarda qurbon bo`lganlar xotirasi minnatdor avlodlar yodida abadiy saqlanib qoladi.

O`tgan asrning 80-yillarida ham minglab yurtdoshlarimiz nadolatsizlik qurboni bo`lgan. Paxta ishi , o`zbek ishi degan soxta ayblovlar bilan respublikamiz bo`yicha 40ming kishi tergov qilingan, 5ming nafari jinoiy javobgarlikka tortilgan.

Davlatimiz rahbari O`zbekistonga yigirma besh yil rahbarlik qilgan, o`zbek xalqining buyuk farzanli Sharof Rashimov ham yo`limidan keyin siyosiy qatag`onga uchragani alamli ekanini aytdi.

Jadid bobolarimiz hayotini o`rganish, nohaq qatag`oonga uchragan insonlar xotirasini abadiyashtirish bo`yicha xayrli ishlar qilinayotgani ta`kidlandi.

Bugungi kunda Mahmudxo`ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Ishoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho`lpon, Abdulla Qodiriy kabi ulug` ma`rifatparvar ajdodlarimiz xotirasiga bag`ishlangan muhtasham haykallar, muzeylar buned etildi, ijod maktablari faoliyati yo`lga qo`yildi.Siyosiy qatag`on yo`llarida nohaq qurbon bo`lgan yurtdoshlarimizning nomlarini aniqlash, ularning qoldirgan merosini o`rganish va keng jamoatchilikka etkazishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, badiiy va hujjatli asarlar yaratildi.

Bu davrga oid tarix yangi topilayotgan hujatlar va ashyolar bilan boyib bormoqda. Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo`yicha Xotira kitoblari tayorlandi.Ularga 40mingga yaqin vatandoshimiz to`g`risidagi ma`lumotlar kiritildi. Bu to`plamlar yaqin vaqt ichida chop etiladi.

Prezidentimiz shular bilan birga qatag`on qurbonlari yashagan mahallalarda ularning nomlari, faoliyatini muhrlab qo`yish zarurligiga ta`kidladi.

Mutasaddilarga jadid bobolarimiz tarixini o`rganayotgan tadqiqotchilarga maqsadli grantlar ajratish, ular haqida hujjatli va badiiy filmlar olish,matbuot va internet nashrlarda materiallar chop etish bo`yicha ko`rsatmalar berildi.

Ushbu marosimda President Shavkat Mirziyoyev qo`yidagi fikrlarni aytdi;

-Har safar bu yerga kelib, xalqimiz ozodligi yo`lida qurbon bo`lgan jasur bobolarimizni eslab, ko`nglimiz taskinyopadi. Ularni xotirlash,yozgi ishlarini davom ettirish biz uchun ham qarz, ham farz. Qatag`on qilingan yetakchilalarimizning taqdiri barchamizni mustaqilligimizni qadrlashga, uni asrab- avaylashgaundaydi. Mana shunday mustaqillikda, tinchlikda yashashning o`zi Alloh taoloning katta marhamati, nemati. Buning uchun shukronalik bilan, uning qadriga etish kerak.

-Bu borada adolatni tiklash bo`yicha ko`p ishlar qilyapmiz. Tarixchi olimlar ishtirokida komissiyalar yuzildi, arxiv hijjatlari o`rganilayapti. Oxirgi ikki yilda O`zbekiston Oliy sudi 850nafardan ziyod, bu yil 240 nafar ana shunday jabrdiyda vatandoshlarimizning nomini oqladi. Bunday izlanishlarni hech qachon to`xtatmasligimiz kerak. Negaki haqiqatni xalqimiz bilishi kerak.

-Muzeylar qildik, kitoblar chiqayapyi, ko`pchiligi oqlanyapti. Lekin shu bilan unutilishi kerak emas. Mening nazarimda, qatag`on qurbonlari tug`ilib o`sgan yoki bugun avlodlari yashayotgan mahallada, o`sha yerdagi maktabga ularning nomlarini yizib qo`ysak, ham savobli, ham ibratli ish bo`lardi. Qolaversa, mana shunday, xotira kunlarida xonadonlarini ziyorat qilish kerak. Nega urush qatnashchilarini uyiga boramizu, qatag`on qurbonlarini eslamaymiz. Ularning har birining hayoti- qahramonlik. Biz buni o`rganib, tashviqot qilib, yoshlarimizga yetkazishimiz kerak.

-Xalqimiz davrni yaxshi bilishi, faxrlanishi kerak. Yoshlar Bizning bobolarimiz istiqlol orzusida kurashgan, o`zini ayamagan, biz mustaqillik uchun nima qilayaomiz deb o`ziga savol berishi zarur. Mustaqillikning mustahkam zamini nima o`zi. Avvalo, Vatanparvarlik, bilim, ma`naviyat. Jamiyatimizda ana shunday vatanparvarlik ruhini , shukronalik ruhini kuchaytirishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev BMT ning 72-sessiyasidagi nutqi. 2.,, Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch " Toshkent 2008-yil O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti.
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.Buyuk kelajagimiz kafolati. Toshkent 2009.
4. 10-11-sinf Tarbiya darsliklari.